

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MAHMADIYOROV FARRUX SHOMUROT O‘G‘LI

**PEKIN KARAMI (BRASSICA RAPA SUBSP. PEKINENSIS.L)NING ABIOTIK
OMILLARGA BARDOSHLI, QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARIGA EGA
NAVLARINI YARATISH HAMDA ISHLAB CHIQRISHGA JORIY QILISH**

06.01.05 - Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya himoyasisiz
seleksiya yutug‘i (ixtiro patenti) asosida qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun

TAQDIMOTI

Ilmiy rahbar: q.x.f.d., professor  D.S. Normurodov



TERMIZ -2025

KIRISH (taqdimot (ixtiro patenti)ning annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda karambosh sabzavotlar dunyo dehqonchiligida 2,3 mln gektar maydonga ekilib, o‘rtacha hosildorligi 16,9-18,2 t/ga.ni, yalpi hosil 73,8 mln. tonnani tashkil etmoqda¹. Dunyoda karambosh sabzavotlar yetishtirishda Xitoy (35,4 mln. t.), Hindiston (10,0 mln. t.), Rossiya (2,6 mln. t.), Koreya (2,4 mln. t.), Ukraina (1,5 mln. t.), Yaponiya (1,4 mln. t.), Indoneziya (1,4 mln. t.), Vetnam (1,2 mln. t.), Keniya (1,1 mln. t.), Turkiya (1,0 mln. t.) kabi davlatlar yetakchilik qilib, olinayotgan yalpi hosilning 74,6 % ushbu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi². Karambosh sabzavotlar orasida vitaminlar va minerallarga boy, kaloriya miqdori yuqori pekin karamini dunyo mamlakatlarining aksariyatida yetishtirish bugungi kunda dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha sabzavot ekinlari orasida karam ekini yetishtiriladigan maydoni bo‘yicha 5-o‘rinni egallaydi. Dunyo mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda, mavjud sug‘oriladigan maydonlardan samarali foydalangan holda mintaqa iqlimidan kelib chiqib, ertangi, o‘rtangi va takroriy ekin sifatida pekin karam yetishtirishda samarali va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda ertapishar, hosildor navlarini yetishtirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish e‘tibor qaratilmoqda. Shu bois, ertapishar, hosildor, tavarbopligi yuqori, ekologik stress omillarga bardoshli navlarni yaratish, ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyalarni ishlab chiqish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga innovatsiya ishlanmalarini joriy qilgan holda ekinlarning yangi navlarini yaratish va ularning hosildorligi hamda kasalliklarga chidamliligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mintaqamizning qulay tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, bir yilda 2-3 martagacha yuqori va sifatli hosil yetishtirish imkoniyati mavjud. Respublika qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan

¹ <https://www.fao.org/faostat/en/#home>

² <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"³gi³ farmonlarida vazifalar belgilab berilgan. Jahon sabzavotchilik genofondi resurslaridan samarali foydalangan holda, mamlakatimiz agroiklim hududlari sharoitiga moslashgan, tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, barqaror va yuqori hosildorlikka ega, shu bilan birga eksportbop sifatiga ega bo'lgan pekin karami navlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-martdagi 158-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash tizimini takomillashtirish to'g'risida"⁴gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot taqdimoti fan va texnologiyalar rivojlanishining V ustuvor yo'nalishi — «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» doirasida amalga oshirilib, mazkur sohalardagi ilmiy-amaliy masalalarni hal etishga qaratilgandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pekin karamining ertapisharligi, serhosilligi hamda kasallik va zararkunandalarga bardoshli navlarini tanlash va ularni parvarishlash texnologiyalarini takomillashtirish masalalari yuzasidan xorijiy mamlakatlarda Н.И.Вавилов, А.Т.Лебедева, З.В.Сыч, Г.И.Тараканов, А.Н.Ничипорович, Е.Н.Сагалович, Г.Г.Каплина, Т.В.Лизгунова, Л.Л.Бондарева, И.Й.Китаева, Р.Саллй, Ж.Борковски, В.Ф.Пивоваров, М.Магнуссон, А.В.Солдатенко, Н.А.Колпаков, С.Г.Монахос va boshqa ko'plab taniqli olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda esa ushbu karam turini ertangi va takroriy davrlarda yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, qimmatli xo'jalik belgilariga ega navlarni yaratish hamda birlamchi urug'chilikni tashkil etish masalalari Sh.I.Asatov, U.X.Xurramov, J.O.Karimov va Sh.Sharipova kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.03.2021-yildagi 158-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash tizimini takomillashtirish to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5344583>

Taqdimot mavzusining, taqdimot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog'liqligi. Qo'yidagi taqdimot tadqiqotlari Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Qishloq xo'jalik ekinlarining intensiv tipdagi yuqori hosilli nav va duragaylarini yaratish, iqlimlashtirish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishda ilmiy jihatdan asoslangan resurstejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan (2019-2024 yy.).

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning maqsadi. Qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan, tashqi muhit omillariga bardoshli Pekin karamining nav namunalari tanlash va yangi navini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning vazifalari quyidagilardan iborat:

Pekin karam kolleksiya namunalari morfo-biologik va qimmatli-xo'jalik belgilari va xususiyatlari bo'yicha kompleks baholash;

seleksiyaning tanlash usullari asosida ertapishar, yuqori hosildor va eksport talablariga javob beradigan istiqbolli pekin karam namunalari ajratib olish;

pekin karamining istiqbolli ajratib olingan namunalari bilan seleksiya ishlarini davom ettirish, navini yaratish, nav sinovlarini o'tkazish va davlat nav sinoviga topshirish;

pekin karamining yetishtirishni iqtisodiy samaradorligini, biokimyoviy tarkibini aniqlash va yangi navga intellektual mulk agentligining patentini olish hamda ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqot (ixtiro patenti) ning ob'ekti sifatida O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti milliy genbankida 17 ta (k-54 "Xibinskaya, st", k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-121 "BP 31", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-125 "BP 01", k-126 "PARA", k-127 "ROTO NA DA NI", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231") pekin karam nav namunalari xizmat qildi.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning predmeti Pekin karamining qimmatli-xo'jalik belgilari va morfo-biologik xususiyatlari bo'lib, ertapisharligi, hosildorligi, sifatli hosil miqdori va biokimyoviy tarkibini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning usullari. Dala tajribalarini o'tkazishda «Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте» Москва, 1981., «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве» Москва, 1992., «Сабзавот, полиз ва картошка экинлариди тажрибалар ўтказиш услуби» Тошкент, 2023., «Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» Москва, 2015., kabi qo'llanmalaridan foydalanildi. Ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida Б.А.Доспехов dispersion uslub asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor respublikamizning markaziy mintaqa (Samarqand viloyati) iqlim sharoitida pekin karamining chetdan introduksiya qilingan k-54 "Xibinskaya, St", k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-121 "BP 31", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-125 "BP 01", k-126 "PARA", k-127 "ROTONA DANI", k-128 "FRESCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231" nav namunalarining morfobiologik va qimmatli xo'jalik belgilari o'rganilgan;

Pekin karamining kolleksiya nav namunalarining kompleks belgilari bo'yicha ertapishar bo'lgan 5 ta k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" namunalarda birinchi terimgacha bo'lgan davr 67-79 kun bo'lgan bo'lsa, andoza Xibinskaya navida esa 94 kun bo'lganligi ko'zatildi, bu esa andoza Xibinskaya navga nisbatan 15-27 kun erta hosil yetilganligi aniqlandi;

Pekin karamining kolleksiya nav namunalarining kompleks belgilari bo'yicha yuqori hosildor bo'lgan 6 ta jumladan, k-149 "Bokal", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-122 "BP 07", k-153 "FN 0231", k-130 "ARTAMIR AE" nav namunalari ajratib olindi hamda umumiy hosildorligi 38-107 t/ga bo'lib andoza "Xibinskaya" (36,4 t/ga) naviga nisbatan 1,6-70,6 t/ga yoki 4,4-194 foizgacha yuqori ekanligi aniqlangan;

Pekin karamining kolleksiya nav namunalarining kompleks belgilari bo'yicha tovarbopligi yuqori bo'lgan 153 "FN 0231" (93%), k-149 "Bokal" (90%), k-121 "BP 31" (90%), k-126 "PARA" (86%) va k-130 "ARTAMIR AE" (87%) nav namunalari

tanlab olingan bo‘lib, ushbu nav va namunalarda tovarbop karamboshlar miqdori “Xibinskaya” (85%) naviga nisbatan 1-8% gacha yuqori ekanligi aniqlangan;

Pekin karamining ertapishar, hosildorligi va hosil sifati yuqori yangi “Yog‘du” navi yaratilgan hamda Intellektual mulk agentligidan seleksiya yutug‘iga NAP 544 raqamli patenti olingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pekin karamining Rossiyadan keltirilgan k-149 “Bokal”, Tayvandan keltirilgan k-121 “BP 31”, k-122 “BP 07”, k-123 “BSS 23”, k-125 “BP 01”, k-153 “FN 0231” va Gollandiyadan keltirilgan k-126 “PARA” hamda k-130 “ARTAMIR AE” nav namunalaridan seleksiya jarayoni uchun hosildorligi yuqori, ertapishar liniyalar ajratib olingan;

Yangi yaratilgan “Yog‘du” navi Respublikamizning Samarqand viloyatining Urgut, Jomboy va Toyloq, tumanlari fermer xo‘jaliklarida, jami 10,9 gektar maydonga joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestriga pekin karamining “Yog‘du” navi kiritildi va 2025-776 raqamli guvohnoma olingan;

Intellektual mulk agentligidan pekin karamining “Yog‘du” naviga NAP 544 raqamli patent olingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ishonchliligi. dala va laboratoriya tadqiqotlarining o‘tkazilganligi, ijobiy baholanganligi, tadqiqot natijalari respublika va chet el tadqiqotlari bilan taqqoslab, tahlil qilinganligi, to‘plangan ma’lumotlar hisobotlar tarzida institut ilmiy kengashlarida muhokama qilinganligi va ijobiy baholanganligi, tajriba natijalariga ishlov berishda zamonaviy statistik tahlil uslublaridan foydalanganligi hamda respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi natijalarning ishonchliligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Olib borilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati morfobiologik va xo‘jalik nuqtai nazardan pekin karamining nav namunalariga baho berilganligi, ular orasidan ertapisharligi, yuqori hosildorligi, eksportbop namunalarning ajratilganligi va yangi

istiqbolli rayonlashtirilgan “Yog‘du” navning iqtisodiy samaradorligi andoza Xibinskaya naviga nisbatan 124,5%, tovarbopligi esa 8% ga yuqori ekanligini ilmiy asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pekin karamining morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlariga ega, ertapishar, hosildor va eksport talablariga javob beradigan istiqbolli «Yog‘du» navi yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining joriy qilinishi. “Pekin karami (BRASSICA RAPA SUBSP. PEKINENSIS.L)ning abiotik omillarga bardoshli, qimmatli xo‘jalik belgilariga ega navlarini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy qilish” mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

Pekin karamining ertapishar, hosildor va eksportbop yangi “Yog‘du” navi yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasi Intelektual Mulk agentligi tomonidan seleksiya yutug‘i sifatida patent (NAP 544) berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 2-iyundagi № 05/06-04-314-son ma’lumotnomasi);

Pekin karamining “Yog‘du” navi Samarqand viloyati Urgut tumanida 3,8 gektar, Jomboy tumanida 3,5 gektar, Tayloq tumanida 3,6 gektar, viloyat bo‘yicha jami 10,9 gektar maydonga amaliyotga joriy qilingan. Samarqand viloyati sharoitida gektaridan o‘rtacha 95,3-99,1 tonna hosil olinib, 104,8 mln so‘m sof daromad olishga erishilgan. Buning natijasida fermer xo‘jaliklarida yetishtirilayotgan davlat reestriga kiritilgan Xibinskaya naviga nisbatan hosildorlik 38,4% ga yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hamda tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining e‘lon qilinganligi. Mavzu bo‘yicha jami 7 ta ilmiy maqolalar, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar hamda 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarining to'plamlarida tezislar jurnallarida nashr etilgan.

I-BOB. BRASSICA RAPA SUBSP. PEKINENSIS (L.) TURIGA MANSUB KAM TARQALGAN PEKIN KARAMINING YANGI, YUQORI SIFATLI VA AGROBIOLOGIK JIHATDAN USTUN NAV YARATISH.

Ilmiy-tadqiqot ishlarimiz uchun kam tarqalgan pekin karam turining 17 ta kolleksiya nav namunalari yig'ildi.

Ushbu nav namunalarini o'rganish uchun andoza nav sifatida Respublikamizda 1988-yilda rayonlashtirilgan «Xibinskaya» (k-54) navidan foydalanildi.

O'rtangi muddatlarda, yetishtirilganda birinchi terimgacha 94 kun va oxirgi terimgacha esa o'suv davri 105 kun bo'lganligi kuzatildi, barg eni 19 sm, bargning uzunligi 32 sm, barglari soni 24 dona va barg bandining uzunligi ham 24 sm bo'lganligi, hamda karamboshining o'rtacha vazni 0,90 kg, o'rtacha hosildorligi 36,4 t/ga, sifatli hosil esa 85 foizni tashkil etadi.

Samarqand viloyati tuproq iqlim sharoitida tadqiqotlar olib borish va sinovlardan o'tkazish uchun kam tarqalgan pekin karamini O'zbekiston, Xitoy, Qozog'iston, Tayvan, Rossiya va Gollandiya davlatlaridan 17 ta katalog raqami k-54 «Xibinskaya, st», k-72 «Nomsiz», k-73 «Nomsiz», k-149 «Bokal», k-120 «BP 05», k-121 «BP 31», k-122 «BP 07», k-123 «BSS 23», k-124 «BP 02», k-125 «BP 01», k-126 «PARA», k-127 «ROTO NA DA NI», k-128 «FRE SCO», k-129 «BRO NCO E1», k-130 «ARTAMIR AE», k-131 «FLAME NCO», k-153 «FN 0231» kolleksiya nav namunalari 2018-2019-yillar davomida o'rtangi muddatlarda (20-mart kuni tayyor ko'chatlar ekildi) qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganildi. (1-jadval).

Kam tarqalgan pekin karami kolleksiya namunalarining morfologik xususiyatlari va biometrik ko'rsatkichlari
(2018-2019 y.y.).

№	Katalog raqami	Jahon kolleksiya nav namunalarining nomlari	Kelib chiqishi	Nav belgilari													
				Barg eni, sm	Bargning uzunligi, sm	Barglari soni, dona	Barg bandining uzunligi, sm	O' simlik: o' sish turi	Karam boshi: bo' ylama kesim shakli	Karam boshi: tur	Tashqi barg: chetlarining to' lqinsimonligi	Tashqi barg, rangi	Birinchi terimgacha bulgan davr	O' suv davri, kun	Karam boshining og' iriligi, kg	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbop hosildorlik, %
1.	54	Xibinskaya, St	O'zbekiston	19	32	24	24	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	94	105	0,90	36,4	85
2.	72	Nomsiz	Xitoy	20	33	25	26	Yarim tik	Yumaloq	Yarim ochiq	Kuchli	Yashil	99	112	1,1	52,4	76
3.	73	Nomsiz	Qozog'iston	17	36	26	24	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	Sarg'ish yashil	111	120	1,3	61,8	81
4.	149	Bokal	Rossiya	23	29	22	27	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Zaif	Kulrang-yashil	79	92	0,80	38,0	92
5.	120	BP 05	Tayvan	20	30	23	23	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	102	114	0,95	45,2	89
6.	121	BP 31	Tayvan	24	31	26	24	Yarim tik	Elliptic	Yarim ochiq	Zaif	To'q kuchli yashil	76	85	0,75	35,7	90
7.	122	BP 07	Tayvan	22	35	28	26	Keng yoyilib	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	114	125	2,1	100	67
8.	123	BSS 23	Tayvan	23	33	20	27	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Yarim ochiq	Kuchli	Kulrang-yashil	102	110	1,5	71,4	78
9.	124	BP 02	Tayvan	22	30	24	24	Tik	Cho'zinchoq	Yarim ochiq	O'rtacha	Yashil	80	90	0,95	45,2	87
10.	125	BP 01	Tayvan	19	36	23	26	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yopiq	Kuchli	Yashil	112	122	1,8	85,7	75
11.	126	PARA	Gollandiya	18	34	22	29	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	70	82	0,70	33,3	86
12.	127	ROTO NA DA NI	Gollandiya	22	29	24	28	Tik	Yumaloq	Yarim ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	90	100	1,2	57,1	82
13.	128	FRE SCO	Gollandiya	24	30	26	26	Keng	Teskari	Yopiq	O'rtacha	Kulrang-yashil	84	92	0,85	40,5	89

								yoyilib	tuxumsimon								
14.	129	BRO NCO E1	Gollandiya	26	34	21	29	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Zaif	Sarg'ish yashil	76	84	0,70	33,3	86
15.	130	ARTAMIR AE	Gollandiya	23	36	20	26	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	72	79	1,1	52,4	87
16.	131	FLAME NCO	Gollandiya	20	30	23	30	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yarim ochiq	Zaif	Yashil	80	89	1,2	57,1	84
17.	153	FN 0231	Tayvan	24	34	27	28	Tik	Tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	To'q kuchli yashil	67	74	2,25	107	93

1.1-§. Kam tarqalagan pekin karamining nav namunalaridan ertapisharlik belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalalar.

Kam tarqalagan pekin karamining k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-126 "PARA", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231" kolleksiya nav namunalari boshqa namunalarga va andoza k-54 "Xibinskaya, st" naviga nisbatan erta yetilganligi kuzatildi. Jumladan, birinchi terimgacha bo'lgan davr andoza Xibinskaya navda 94 kun bo'lgan bo'lsa qolgan k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-126 "PARA", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231" namunalarda 67-kundan 84-kungacha bo'lganligi ko'zatildi, bu esa andoza Xibinskaya navga nisbatan 10-27 kun oldin birinchi terim bo'ldi.

Pekin karamini kolleksiya nav namunalarini qimmatli xo'jalik belgilari o'rganilganda, ertapisharlik belgilariga ega bo'lgan k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-126 "PARA", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231" nav namunalarning o'suv davri o'rtacha 74-92 kun bo'lganligi aniqlandi. Ushbu nav namunalari andoza "Xibinskaya" navga nisbatan ertapisharligini ko'rsatdi, ya'ni andoza "Xibinskaya" navning o'suv davri 105 kun bo'lgan bo'lsa qolgan nav namunalari andoza navga nisbatan 13-31 kungacha erta yetilganligi ko'zatildi.

To'plagan barglar soni va ularning o'lchami bo'yicha tajribalarda sinab ko'rilgan pekin karamining nav namunalari bir-biridan ajralib turishi, biometrik kuzatishlarda aniqlandi. Bunda k-149 "Bokal", k-126 "PARA", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO" nav namunalari k-54 "Xibinskaya, St", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO", k-153 "FN 0231" nav namunalari nisbatan eng kam barglar soniga ega bo'lganligi namayon bo'ldi.

Andoza "Xibinskaya" navida o'rtacha bir tup o'simlikdagi barglar soni 24 donani tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich, k-121 "BP 31", k-128 "FRE SCO", k-153 "FN 0231" nav namunalari 26-27 donani va andozaga nisbatan 2-3 donaga yoki 8,3-12,5 % ortiq bo'lganligi aniqlandi.

Kam tarqalgan pekin karam turining ertapisharlik belgilari bo'yicha kolleksiya nav namunalari (2018-2019 y.y.).

№	Katalog raqami	Jahon kolleksiya nav namunalari nomlari	Kelib chiqishi	Nav belgilari													
				Barg eni, sm	Bargning uzunligi, sm	Barglari soni, dona	Barg bandining uzunligi, sm	O' simlik: o' sish turi	Karam boshi: bo' ylama kesim shakli	Karam boshi: tur	Tashqi barg: chetlarining to' lqinsimonligi	Tashqi barg: rangi	Birinchi terimgacha bulgan davr	O' suv davri, kun	Karam boshining og' irligi, kg	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbob hosildorlik, %
1.	54	Xibinskaya, st	O'zbekiston	19	32	24	24	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	94	105	0,90	36,4	85
2.	149	Bokal	Rossiya	23	29	22	27	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Zaif	Kulrang-yashil	79	92	0,80	38,0	92
3.	121	BP 31	Tayvan	24	31	26	24	Yarim tik	Elliptik	Yarim ochiq	Zaif	To'q kuchli yashil	76	85	0,75	35,7	90
4.	124	BP 02	Tayvan	22	30	24	24	Tik	Cho'zinchoq	Yarim ochiq	O'rtacha	Yashil	80	90	0,95	45,2	87
5.	126	PARA	Gollandiya	18	34	22	29	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	70	82	0,70	33,3	86
6.	128	FRE SCO	Gollandiya	24	30	26	26	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	Kulrang-yashil	84	92	0,85	40,5	89
7.	129	BRO NCO E1	Gollandiya	26	34	21	29	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Zaif	Sarg'ish yashil	76	84	0,70	33,3	86
8.	130	ARTAMIR AE	Gollandiya	23	36	20	26	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	72	79	1,1	52,4	87
9.	131	FLAME NCO	Gollandiya	20	30	23	30	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yarim ochiq	Zaif	Yashil	80	89	1,2	57,1	84
10.	153	FN 0231	Tayvan	24	34	27	28	Tik	Tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	To'q kuchli yashil	67	74	2,25	107	93
NSR₀₅				0,41	0,07	0,47	0,49								0,02	1,09	
Sx%				1,96	0,20	1,98	1,83								2,25	2,27	

Eng uzun barglarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan bir tup o'simliklar bo'yicha o'lchovlarda, pekin karamining k-126 "PARA", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-153 "FN 0231" namunalari, bu ko'rsatkich bo'yicha 34-36 sm, andoza "Xibinskaya" navdan 2-4 sm ga uzun bo'lgan barglar shakllantirishi aniqlandi.

Nav namunalarning hosilni yig'ib olish oldidan o'tkazilgan biometrik o'lchovlarda nav sinovida qatnashgan k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO", k-131 "FLAME NCO" namunalari andozaga nisbatan 1-3 sm ga qisqa bo'lgan barglarga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

Pekin karamini nav namunalarining karam bosh o'ray boshlaganda barg bandining uzunligi biroz yiriklashdi. U andoza "Xibinskaya" navida 24 sm va unga nisbatan yirikroq ko'rsatkich (2-6 sm yoki 8,3-25%) k-149 "Bokal", k-126 "PARA", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" nav namunalarida kuzatildi. Andoza bilan bir xil (24 sm) ko'rsatkich k-121 "BP 31" va k-124 "BP 02" nav namunalarida kuzatildi.

O'simliklarda barg eni barg uzunligidan biroz kichik bo'ldi. Bunda andoza k-54 "Xibinskaya, St" navga nisbatan yuqori ko'rsatkich (1-7 sm yoki 5,2-36,8) k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO", k-153 "FN 0231" nav namunalarda kuzatildi. Qolgan nav namunaning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi: k-126 "PARA" namunada 18 sm yoki 5,2 foizga kichkana bo'lganligi kuzatildi.

Ertapisharlik belgilari bo'yicha tanlab olingan pekin karam nav namunalarining karambosh shakli, barglarning tuzilishi va ko'chatning shakllanishi turlicha bo'ldi. Jumladan o'simlik o'sish turi, yarim tik holatda k-54 "Xibinskaya, st", k-121 "BP 31", k-126 "PARA" va k-131 "FLAME NCO" namunalarda ko'zatildi. O'simlik o'sish turi keng yoyilib barglari va karamboshlari shakllanish hamda rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan k-128 "FRE SCO" va k-129 "BRO NCO E1" nav namunalarida namayon bo'ldi. O'simlik o'sish tik holatda barg va karambosh shakllantiruvchi k-149 "Bokal", k-124 "BP 02", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav namunalarida aniqlandi.

Karam boshining bo'ylama kesim shakli bo'yicha, nav namunalarda

aniqlaganimizda, karambosh cho‘zinchoq shakli k-54 “Xibinskaya, st”, k-149 “Bokal”, k-124 “BP 02”, k-126 “PARA” va k-130 “ARTAMIR AE” nav namunalarida, karamboshi elliptik shakli k-121 “BP 31” nav namunada, karamboshi teskari tuxumsimon shakli k-128 “FRE SCO” namunada, karamboshi tuxumsimon shakli k-129 “BRO NCO E1” va k-153 “FN 0231” nav namunalarda va karamboshi tor cho‘zinchoq shakli k-131 “FLAME NCO” namunalarda ko‘zatildi.

Andoza k-54 “Xibinskaya, st” navida karambosh vazni 0,90 kg. ga teng bo‘ldi. Ularga birmuncha yaqin (0,80–0,95 kg) ko‘rsatkich k-149 “Bokal”, k-124 “BP 02” va k-128 “FRE SCO” kabi nav namunalarida kuzatildi. Andoza k-54 “Xibinskaya, St” naviga nisbatan yirik karambosh vazni (44,4–70,0 %) k-130 “ARTAMIR AE”, k-131 “FLAME NCO” va k-153 “FN 0231” namunalarida kuzatildi. Aksincha andoza k-54 “Xibinskaya, St” navidan karambosh vazni kechkina karambosh shakllantirgan (14,9–22,2 %) k-121 “BP 31”, k-126 “PARA” va k-129 “BRO NCO E1” nav namunalarida aniqlandi.

Umumiy hosildorligi bo‘yicha sinovda qatnashgan nav namunalarning ichida andoza k-54 “Xibinskaya, St” (36,4) navidan yuqori natija ko‘rsatgan k-149 “Bokal”, k-124 “BP 02”, k-128 “FRE SCO”, k-130 “ARTAMIR AE”, k-131 “FLAME NCO” va k-153 “FN 0231” nav namunalar 38,0–107 t/ga bo‘ldi. Bu ko‘rsatgich andoza navdan 1,6–70,6 t/ga yoki 4,4–193,4 foizga yuqori hosil to‘pladi. Qolgan k-121 “BP 31”, k-126 “PARA” va k-129 “BRO NCO E1” nav namunalarning umumiy hosildorligi o‘rtacha 33,3–35,7 t/ga tashkl etdi. Andoza k-54 “Xibinskaya, St” naviga nisbatan 0,7–3,1 t/ga past natijani aniqlandi.

Shuni takidlash lozimki, faqat bitta nav namunaning to‘plagan sifatli mahsulotini umumiy hosildorlikdagi ulish taxliliga ko‘ra, eng past sifatli mahsulot k-131 “FLAME NCO” nav namunadan olingan bo‘lib, uning ko‘rsatkichi k-54 “Xibinskaya, St”, k-149 “Bokal”, k-121 “BP 31”, k-124 “BP 02”, k-126 “PARA”, k-128 “FRE SCO”, k-129 “BRO NCO E1”, k-130 “ARTAMIR AE” va k-153 “FN 0231” nav namunalariga nisbatan 1,0–9,0 % gacha past bo‘lganligini ko‘rsatdi.

1.2-§. Kam tarqalagan pekin karamining nav namunalardan hosildorlik belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalalar.

Kam tarqalaga pekin karamining O'zbekiston, Xitoy, Qozog'iston, Tayvan, Rossiya va Gollandiya davlatlaridan jami 17 ta yig'ilgan nav namunalari ichidan hosildorligi andoza k-54 "Xibinskaya st" navdan 13 ta nav namunalari yuqori natijalarni namoyon etdi.

Jumladan, k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-125 "BP 01", k-127 "ROTO NA DA NI", k-128 "FRE SCO", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" nav namunalari o'rtacha umumiy hosildorlik 38-107 t/ga bo'ldi.

Boshqa nav namunalarga nisbatan andoza k-54 "Xibinskaya St" navga yaqin umumiy hosil to'plagan (38-45,2 t/ga yoki 4,4-24,1 % ga farq qildi) k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-124 "BP 02" va k-128 "FRE SCO" nav namunalari ko'zatildi.

Qolgan k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-127 "ROTO NA DA NI", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" nav namunalari umumiy hosildorligi andoza k-54 "Xibinskaya St" navdan 52,4-107 t/ga yuqori hosil to'pladi.

Kam tarqalagan pekin karamining nav namunalari ichidan hosildorlik belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalari ichidan andoza k-54 "Xibinskaya, st" navga nisbatan karambosh vazni k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-124 "BP 02" va k-128 "FRE SCO" nav namunalari (0,80-0,95 kg) yaqin bo'ldi.

Qolgan k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-127 "ROTO NA DA NI", k-130 "ARTAMIR AE", k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" nav nomunalari karambosh vazni o'rtacha 1,1-2,25 kg tosh bosuvchi karambosh shakllantirdi. Bu esa andoza "Xibinskaya st" navga nisbatan qo'shimcha 0,20-1,35 kg yoki 22,2-150 % ga katta karambosh shakllantirdi.

Kam tarqalag pekin karam turining hosildorlik belgilari bo'yicha kolleksiya nav namunalarining ko'rsatkichlari (2018-2019 y.y.).

№	Katalog raqami	Jahon kolleksiya nav namunalarining nomlari	Kelib chiqishi	Nav belgilari													
				Barg eni, sm	Bargning uzunligi, sm	Barglari soni, dona	Barg bandining uzunligi, sm	O' simlik: o' sish turi	Karam boshi: bo' ylama kesim shakli	Karam boshi: tur	Tashqi barg: chetlarining to' lqinsimonligi	Tashqi barg: rangi	Birinchi terimgacha bulgan davr	O' suv davri, kun	Karam boshining og' irligi, kg	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbob hosildorlik, %
1.	54	Xibinskaya, St	O'zbekiston	19	32	24	24	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	94	105	0,90	36,4	85
2.	72	Nomsiz	Xitoy	20	33	25	26	Yarim tik	Yumaloq	Yarim ochiq	Kuchli	Yashil	99	112	1,1	52,4	76
3.	73	Nomsiz	Qozog'iston	17	36	26	24	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	Sarg'ish yashil	111	120	1,3	61,8	81
4.	149	Bokal	Rossiya	23	29	22	27	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Zaif	Kulrang-yashil	79	92	0,80	38,0	92
5.	120	BP 05	Tayvan	20	30	23	23	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	102	114	0,95	45,2	89
6.	122	BP 07	Tayvan	22	35	28	26	Keng yoyilib	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	114	125	2,1	100	67
7.	123	BSS 23	Tayvan	23	33	20	27	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Yarim ochiq	Kuchli	Kulrang-yashil	102	110	1,5	71,4	78
8.	124	BP 02	Tayvan	22	30	24	24	Tik	Cho'zinchoq	Yarim ochiq	O'rtacha	Yashil	80	90	0,95	45,2	87
9.	125	BP 01	Tayvan	19	36	23	26	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yopiq	Kuchli	Yashil	112	122	1,8	85,7	75
10.	127	ROTO NA DA NI	Gollandiya	22	29	24	28	Tik	Yumaloq	Yarim ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	90	100	1,2	57,1	82
11.	128	FRE SCO	Gollandiya	24	30	26	26	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	Kulrang-yashil	84	92	0,85	40,5	89
12.	130	ARTAMIR	Gollandiya	23	36	20	26	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	72	79	1,1	52,4	87

		AE															
13.	131	FLAME NCO	Gollandiya	20	30	23	30	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yarim ochiq	Zaif	Yashil	80	89	1,2	57,1	84
14.	153	FN 0231	Tayvan	24	34	27	28	Tik	Tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	To'q kuchli yashil	67	74	2,25	107	93
NSR₀₅				0,34	0,57	0,42	0,43								0,03	1,20	
Sx%				1,59	1,75	1,77	1,66								1,96	1,98	

O'rganilgan pekin karamining kolleksiya nav namunalarining ichida andoza "Xibinskaya St" navga nisbatan eng yuqori sifatli mahsulot to'plagan k-149 "Bokal" va k-153 "FN 0231" (92-93 %) nav namunalarida ko'zatildi, k-120 "BP 05", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO" va k-130 "ARTAMIR AE" nav namunalarda (87-89 %) andoza navga yaqin va k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-127 "ROTO NA DA NI", va k-131 "FLAME NCO" namunalarda 67-81 foiz yoki 3-18 foizga kam sifatli mahsulot to'pladi.

Yetilgan karamboshlarni yig'ishdan oldin barg bandining uzunligi aniqlanda. U andoza "Xibinskaya" navida 24 sm va unga nisbatan yirikroq ko'rsatkich (16,6–25%) k-127 "ROTO NA DA NI", k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" navlarida kuzatildi. Andozaga yaqin (0-12,5%) ko'rsatkich k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-149 "Bokal", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-125 "BP 01", k-128 "FRE SCO" va k-130 "ARTAMIR AE" kolleksiya namunalarida kuzatildi. Qolgan 1 ta nav namunada ko'rsatkichi andozaga nisbatan 1 sm yoki 4,1% oralig'ida bo'ldi.

Pekin karam turining hosildorlik belgilari bo'yicha kolleksiya nav namunalarining barglar soni o'rtacha bir tup ko'chatda 20-27 donagacha barg shakllantirdi eng ko'p andoza navga nisbatan k-72 "Nomsiz", k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO" va k-153 "FN 0231" nav namunalarida 25-27 dona yoki 4,1-12,5 % ga ko'p barglar shakllantirdi. Aksincha andoza k-54 "Xibinskaya St" navga nisbatan k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-130 "ARTAMIR AE" va k-131 "FLAME NCO" nav namunalari 1-4 donagacha kam barglar shakllantirdi. Karambosh va barglarining morfologik belgilari o'rganilganda, shakllantirgan karamboshlarning holati ochiq holatda k-54 "Xibinskaya St", k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-122 "BP 07" va k-130 "ARTAMIR AE" Yarim ochiq k-72 "Nomsiz", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-127 "ROTO NA DA NI" va k-131 "FLAME NCO" va k-153 "FN 0231" holatda karambosh shakllantirgan hamda karamboshlari yopiq holatda k-73 "Nomsiz", k-125 "BP 01", k-128 "FRE SCO", va k-153 "FN 0231" nav namunalari shakllantirdi.

Pekin karamining tashqi barg chetlarining to'liqsimonligi o'rganilgan kolleksiya nav namunalarida to'rlicha ko'rinishda bo'ldi, ya'ni kuchli, o'rtacha va zaif

shakllandi. Jumladan, tashqi barg chetlarining to'liqsimonligi kuchli: k-54 "Xibinskaya st", k-72 "Nomsiz", k-120 "BP 05", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-127 "ROTO NA DA NI" va k-130 "ARTAMIR AE" tashqi barg chetlarining to'liqsimonligi o'rtacha: k-73 "Nomsiz", k-123 "BSS 23", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO" va k-153 "FN 0231" tashqi barg chetlarining to'liqsimonligi zaif: k-149 "Bokal" va k-131 "FLAME NCO" nav namunalarda morfologik ko'zatuvar natijasida aniqlandi.

1.3-§. Kam tarqalagan pekin karamining nav namunalardan tavorboplik belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalalar.

Biz bilamizki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan maqsad, oziq-ovqat xafsizligini taminlash va tovarbop mahsulot miqdorini oshirishdan iborat.

Yetishtirilgan hosilning sifatini oshishiga tuproq-iqlim sharoiti, agrotexnik tadbirlar va navning xususiyatlari ta'sir qiladi. Kam tarqalagan pekin karamining tovarbop mahsulot miqdori bo'yicha o'rganilgan 17 ta kolleksiya nav namunalardan 9 ta nav namunalarning sifatli mahsulot miqdori andoza (85%) k-54 "Xibinskaya St" navdan ustun bo'ldi. Jumladan, k-126 "PARA" va k-129 "BRO NCO E1" nav namunalarning sifatli mahsulot 86 foiz bo'lib andozaga nisbatan 1 foizga yuqori, k-130 "ARTAMIR AE" va k-124 "BP 02" nav namunalari 87 foiz bo'lib andozaga nisbatan 2 foizga, k-120 "BP 05" va k-128 "FRE SCO" nav namunalari 89 foiz bo'lib andozaga nisbatan 4 foizga, k-121 "BP 31" nav namunada 90 foiz bo'lib andozaga nisbatan 5 foizga hamda k-149 "Bokal" va k-153 "FN 0231" nav namunalari 92-93 foiz bo'lib andozaga nisbatan 7-8 foizga yuqori sifatli hosil to'plaganligi aniqlandi.

Gektardan olinadigan hosildorlik ham ko'chat soniga va karambosh vazniga bog'liq bo'ldi. Andoza k-54 "Xibinskaya St" navida karambosh vazni 0,90 kg bo'ldi.

Qolgan tavorbop belgilarga ega bo'lgan kolleksiya nav namunalarning karambosh vazni andoza navga nisbatan eng katta k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav namunalari ko'zatildi. Ushbu nav namunalarda o'rtacha karambosh vazni 1,1-2,25 kg bo'lib andoza k-54 "Xibinskaya st" navga nisbatan 0,2-1,35 kg ga

yoki 22,2-150 foizga katta karambosh shakllantirdi. Qolgan k-149 “Bokal”, k-120 “BP 05”, k-121 “BP 31”, k-124 “BP 02”, k-126 “PARA”, k-128 “FRE SCO” va k-129 “BRO NCO E1” nav namunalari shakllantirgan karamboshlari 0,70-0,95 kg oralig‘ida bo‘ldi.

“Xibinskaya st” andoza navda olingan umumiy hosildorligi 36,4 t/ga bo‘lgan bo‘lib k-121 “BP 31”, k-126 “PARA” va k-129 “BRO NCO E1” nav namunalaridan 0,7-3,1 t/ga yoki 1,9-8,5% ga hosildorligi kam ekanligi aniqlandi. k-149 “Bokal”, k-120 “BP 05”, k-121 “BP 31”, k-124 “BP 02”, k-126 “PARA”, k-128 “FRE SCO” va k-129 “BRO NCO E1” kolleksiya namunalarining o‘rtacha gektaridan olingan hosildorligi 38,0-107 t/ga bo‘lib andozaga nisbatan 1,6-70,6 t/ga yoki 4,4-194 % ga ishonarli yuqori hosil to‘plaganligi ko‘zatildi.

Tavorboplik belgilari ega bo‘lgan kolleksiya nav namunalarining birinchi terimgacha bo‘lgan davr o‘rtacha 67-102 kungacha bo‘lganligi ko‘zatildi. Sinovda qatnashgan nav namunalarining andoza “Xibinskaya St” (94 kun) navdan k-149 “Bokal”, k-121 “BP 31”, k-124 “BP 02”, k-126 “PARA”, k-128 “FRE SCO” va k-129 “BRO NCO E1”, k-130 “ARTAMIR AE” va k-153 “FN 0231” nav namunalar 10-27 kungacha erta birinchi hosil yetilganligi aniqlandi. Faqatgina k-120 “BP 05” nav namunasining birinchi terimigacha bo‘lgan kun 102 kun bo‘lganligi, bu esa andoza “Xibinskaya St” navdan 8 kunga kechpisharligi namoyon bo‘ldi.

Pekin karam nav namunalarining o‘suv davri davomiyligini hisoblash shuni ko‘rsatdiki, maysalar unib chiqqandan boshlab hosilini yig‘ib olinguniga qadar andoza “Xibinskaya St” (105 kun) navga nisbatan ertapishar Rossiyaning k-149 “Bokal” namunasida 92 kun, Tayvanning k-121 “BP 31”, k-124 “BP 02” va k-153 “FN 0231” namunalarida 74-90 kun, Gollandiyaning k-126 “PARA”, k-128 “FRE SCO”, k-129 “BRO NCO E1”, k-130 “ARTAMIR AE” nav namunalarida 79-92 kun davom etdi. Bu esa andozaga nisbatan 13-31 kungacha ertapisharligini ko‘rsatdi va bitta Tayvanning k-120 “BP 05” nav namunasining o‘suv davri 114 kun bo‘lib andozaga nisbatan 9 kunga kech yetilganligi aniqlandi.

Pekin karamini jahon kolleksiyasining sifatli hosil bo'yicha ko'rsatkichlari (2018-2019 y.y.).

№	Katalog raqami	Jahon kolleksiya nav namunalarning nomlari	Kelib chiqishi	Nav belgilari													
				Barg eni, sm	Bargning uzunligi, sm	Barglari soni, dona	Barg bandining uzunligi, sm	O' simlik: o' sish turi	Karam boshi: bo' ylama kesim shakli	Karam boshi: tur	Tashqi barg: chetlarining to' lqinsimonligi	Tashqi barg: rangi	Birinchi teringacha bulgan davr	O' suv davri, kun	Karam boshining og' irligi, kg	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbob hosildorlik, %
1.	54	Xibinskaya, St	O'zbekiston	19	32	24	24	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	94	105	0,90	36,4	85
2.	149	Bokal	Rossiya	23	29	22	27	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Zaif	Kulrang-yashil	79	92	0,80	38,0	92
3.	120	BP 05	Tayvan	20	30	23	23	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	102	114	0,95	45,2	89
4.	121	BP 31	Tayvan	24	31	26	24	Yarim tik	Elliptic	Yarim ochiq	Zaif	To'q kuchli yashil	76	85	0,75	35,7	90
5.	124	BP 02	Tayvan	22	30	24	24	Tik	Cho'zinchoq	Yarim ochiq	O'rtach a	Yashil	80	90	0,95	45,2	87
6.	126	PARA	Gollandiya	18	34	22	29	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtach a	Yashil	70	82	0,70	33,3	86
7.	128	FRE SCO	Gollandiya	24	30	26	26	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtach a	Kulrang-yashil	84	92	0,85	40,5	89
8.	129	BRO NCO E1	Gollandiya	26	34	21	29	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Ochiq	Zaif	Sarg'ish yashil	76	84	0,70	33,3	86
9.	130	ARTAMIR AE	Gollandiya	23	36	20	26	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	72	79	1,1	52,4	87
10.	153	FN 0231	Tayvan	24	34	27	28	Tik	Tuxumsimon	Yopiq	O'rtach a	To'q kuchli yashil	67	74	2,25	107	93
NSR₀₅				0,50	0,59	0,45	0,48								0,02	1,13	
Sx%				2,26	1,85	1,90	1,83								2,39	2,41	

Nav namunalarida yetilgan hosilni yig'ishdan oldin shakllangan barg eni andoza "Xibinskaya St" navda 19 sm kattalikda shakllandi. Tavorboplik belgilariga ega bo'lgan diyarli barcha (k-149 "Bokal", k-120 "BP 05", k-121 "BP 31", k-124 "BP 02", k-128 "FRE SCO", k-129 "BRO NCO E1", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231") nav namunalar andoza navga nisbatan (20-26 sm yoki 5,2-36,8 foizga) yerik barglarni shakllantirdi.

Barg bandining uzunligi andoza (24 sm) Xibinskaya naviga nisbatan faqat k-120 "BP 05" nav namunada (23 sm) bir oz qisqa bo'lgan barg bandi qayd etildi, k-121 "BP 31" va k-124 "BP 02" (24 sm) nav namunalarda barg bandi bir xil uzunlikda shakllandi, qolganlariniki quyidagicha bo'ldi: katta, uzun barg bandlar, ya'ni 8,3–12,5 foiz oralig'idagi barg bandi k-149 "Bokal", k-128 "FRE SCO" va k-130 "ARTAMIR AE" nav namunalarida; 16,6-20,8 foiz k-126 "PARA" va k-153 "FN 0231" kolleksiya nav namunalarida kuzatildi.

1.4-§. Kam tarqalagan pekin karamining nav namunalardan kompleks belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalar.

Pekin karam kolleksiyasi nav namunalaridan kompleks belgilari bo'yicha 9 ta nav namunalar qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha, ya'ni ertapisharlik, hosildorlik va sifatli hosildorlik belgilari bo'yicha tanlab olindi. Jumladan ertapisharlik belgilari bo'yicha k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav namunalari tanlab olindi, hosildorlik belgilari bo'yicha k-73 "Nomsiz", k-149 "Bokal", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231", tavorboplik belgilari bo'yicha k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav namunalari qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tanlab olindi.

Pekin karamining k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" jahon kolleksiya nav namunalari boshqa namunalarga hamda andoza k-54 "Xibinskaya, st" naviga nisbatan ertapisharligi aniqlandi. Jumladan, birinchi terimgacha bo'lgan davr k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" namunalarda 67-79 kun

bo'lgan bo'lsa, andoza Xibinskaya navida esa 94 kun bo'lganligi ko'zatildi, bu esa andoza "Xibinskaya" navga nisbatan 15-27 kun, andozaga nisbatan kechpishar k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23" va k-125 "BP 01" nav namunlardan esa 8-20 kun oldin birinchi terim bo'ldi.

Pekin karamining nav namunlardan kompleks belgilari bo'yicha tanlab olingan k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23" va k-125 "BP 01" nav namunlarning o'suv davri o'rtacha 110-125 kun bo'lganligi aniqlandi. Ushbu nav namunlari andoza "Xibinskaya" navga nisbatan 5-20 kunga, qolgan k-149 "Bokal", k-121 "BP 31", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav namunalaridan esa 33-36 kungacha o'suv davri o'zoqligi yoki kech yetilganligi ko'zatildi.

Biometrik kuzatishlarda bir tup ko'chatda to'plagan barglar soni va ularning o'lchami bo'yicha tajribalarda sinab ko'rilgan pekin karamining nav namunlari bir-biridan ajralib turishi aniqlandi. Bunda k-149 "Bokal", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-126 "PARA" va k-130 "ARTAMIR AE" (20-23 dona) nav namunlari k-54 "Xibinskaya, St", k-73 "Nomsiz", k-121 "BP 31", k-122 "BP 07", k-153 "FN 0231" nav namunlariga nisbatan eng kam barglar soniga ega bo'lganligi namayon bo'ldi.

k-73 "Nomsiz", k-121 "BP 31", k-122 "BP 07" va k-153 "FN 0231" nav namunalarida o'rtacha bir tup o'simlikdagi barglar soni 26-28 donani tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich andoza k-54 "Xibinskaya, st" navda 24 dona bo'ldi va andozaga nisbatan 2-4 donaga yoki 8,3-16,6 % ortiq bo'lganligi aniqlandi.

Yetilgan hosilni yig'ishdan oldin bir tup o'simliklar bo'yicha o'lchovlarda, eng uzun barglarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan pekin karamining k-73 "Nomsiz", k-122 "BP 07", k-123 "BSS 23", k-125 "BP 01", k-126 "PARA", k-130 "ARTAMIR AE" va k-153 "FN 0231" nav va namunalarining uzun barglari 33-36 sm, andoza "Xibinskaya" navdan 1-4 sm ga yoki 3,1-12,5 % ga uzun bo'lgan barglar shakllantirdi. Faqat k-149 "Bokal" va k-121 "BP 31" nav namunlarning barglari Xibinskaya andoza navga nisbatan 3,1-9,4 % ga qisqa bo'lgan barglar aniqlandi.

Pekin karamini jahon kolleksiyasining kompleks belgilarini ko'rsatkichlari (2018-2019 y.y.).

№	Katalog raqami	Jahon kolleksiya nav namunalari nomlari	Kelib chiqishi	Nav belgilari													
				Barg eni, sm	Bargning uzunligi, sm	Barglari soni, dona	Barg bandining uzunligi, sm	O' simlik: o' sish turi	Karam boshi: bo' ylama kesim shakli	Karam boshi: tur	Tashqi barg: chetlarining to' lqinsimonligi	Tashqi barg: rangi	Birinchi teringacha bulgan davr	O' suv davri, kun	Karam boshining og' iriligi, kg	Umumiy hosildorligi, t/ga	Tovarbob hosildorlik, %
1.	54	Xibinskaya, St	O'zbekiston	19	32	24	24	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	Sarg'ish yashil	94	105	0,90	36,4	85
2.	73	Nomsiz	Qozog'iston	17	36	26	24	Keng yoyilib	Teskari tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	Sarg'ish yashil	111	120	1,3	61,8	81
3.	149	Bokal	Rossiya	23	29	22	27	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Zaif	Kulrang-yashil	79	92	0,80	38,0	92
4.	121	BP 31	Tayvan	24	31	26	24	Yarim tik	Elliptic	Yarim ochiq	Zaif	To'q kuchli yashil	76	85	0,75	35,7	90
5.	122	BP 07	Tayvan	22	35	28	26	Keng yoyilib	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	114	125	2,1	100	67
6.	123	BSS 23	Tayvan	23	33	20	27	Keng yoyilib	Tuxumsimon	Yarim ochiq	Kuchli	Kulrang-yashil	102	110	1,5	71,4	78
7.	125	BP 01	Tayvan	19	36	23	26	Yarim tik	Tor cho'zinchoq	Yopiq	Kuchli	Yashil	112	122	1,8	85,7	75
8.	126	PARA	Gollandiya	18	34	22	29	Yarim tik	Cho'zinchoq	Ochiq	O'rtacha	Yashil	70	82	0,70	33,3	86
9.	130	ARTAMIR AE	Gollandiya	23	36	20	26	Tik	Cho'zinchoq	Ochiq	Kuchli	To'q kuchli yashil	72	79	1,1	52,4	87
10.	153	FN 0231	Tayvan	24	34	27	28	Tik	Tuxumsimon	Yopiq	O'rtacha	To'q kuchli yashil	67	74	2,25	107	93
NSR₀₅				0,59	0,60	0,45	0,50								0,03	1,28	
Sx%				2,78	1,79	1,88	1,92								2,04	2,06	

Pekin karamining eng yerik barglarida barg bandining uzunligi ham yerik shakllanganligini ko'zga tatdik.

